

SANOAT KORXONALARI ELEKTR TA'MINOTIDA ELEKTR YUKLAMALARI KARTOGRAMMASINI QURISH VA BPP NING O'R NATILISH JOYINI ANIQLASH

¹Qurbanov Anvar Razzaqovich,

²Qurbanov Abror Abdinasir o'g'li,

¹Qurbanova Barbo Qurban qizi,

²Jalilov O'rionboy Abdunayim o'g'li

¹Jizzax davlat pedagogika instituti

²Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zavodning elektr energiyaga bo'lган extiyojidan kelib chiqgan holatda elektr energiya isrofini kamaytirish hamda samaradorlik ko'rsatkichini yaxshilash maqsadida elektr yuklamalari kartogrammasi qurilgan va bosh pasaytuvchi padstansianing o'rnatilish joyini aniqlangan.

Kalit so'zlar: aktiv quvvat, reaktiv quvvat, elektr yuklamalar kartogrammasi, bosh pasaytiruvchi podstansiya

BPP joylanish o'rnnini tanlash uchun korxona bosh planiga yuklamalar kartogrammasi chiziladi. Kartogramma deganda har bir sex, ob'ektlar maydonlarida chizilgan doiralar tushuniladi. Ularning markazlari qilib ob'ektlar, sexlar planlarining markazlari olinadi. Chizilgan doiralarning yuzalari, olingan mashtabda, sex yuklamalariga teng bo'ladi. Sex yoki korxona yuklamalarining markazlari elektr energiya qabul qiluvchilarning simvolik markazi hsoblanadi. BPP va sex podstansiyalarini imkoniyat boriga ushbu markazga joylashtirish kerak. Bu esa yuqori kuchlanishli elektr energiyasini iste'molchilarga yaqinlashtiradi, yuqori va past kuchlanishli tarqatuvchi elektr tarmoqlarining uzunligini qisqartiradi, sarflanadigan o'tkazgichlar uzunliklarini kamaytiradi va elektr energiyasini nobudgarchilagini ozayishiga olib keladi. Bularidan tashqari kartogrammasi asosida elektr yuklamalarni korxona hududida qanday taqsimlanganligini tassavvur qilish imkoniyati yaratiladi [1].

Kartogrammani aktiv va reaktiv yuklamalar uchun alohida-alohida qurish maqsadga muvofiqdir. Chunki aktiv va reaktiv quvvat iste'molchilarning korxona maydoni bo'yicha joylashishlari har xil bo'lib, ular ayrim manbalarga ulanishlari mumkin [2].

Kartogramma doiralarining radiuslari quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$r_{ia} = \sqrt{P_{xi}/\pi m}; \quad r_{ip} = \sqrt{Q_{xi}/\pi m};$$

Bu yerda, P_{xi} - i -sexning hisobiy aktiv quvvati;

Q_{xi} - i -sexning xisobiy reaktiv quvvati;

m - doira yuzini aniqlash uchun mashtab.

Aktiv yuklamalarning ta'minoti elektr sistemasidan bajarilsa, reaktiv quvvat man'basi sifatida mahsus kondensator batareyalarini, sinxron kompensatorlarni, reaktiv quvvatning ventilli statik manbalarini ishlatilishi mumkin. Reaktiv quvvat manbalarini o'rnatish joyi reaktiv quvvat kartogrammasi asosida yuklamalarning simvolik markazini aniqlash natijasida topiladi. Reaktiv quvvat kompensatorlari o'rinalarini noto'g'ri tanlash reaktiv quvvat oqimlarini elektr ta'minoti tizimi elementlaridan keraksiz xarakatlariga olib keladi va elektroenergiyaning qo'shimcha nobudgarchiliklariga sabab bo'ladi [3].

Bosh pasaytiruvchi podstansiya (BPP) - bu korxona elektr ta'minotini amalga oshirishga mo'ljalangan bosh transformator podstansiyasidir. BPP dan barcha sex transformator podstansiyalari ta'minlanadi. Uning o'rnatish joyi yuklamalarning og'irlilik markaziga to'g'ri keladi, ya'ni BPP katta quvvatlil iste'molchilar hududida joylashadi [4].

Har bir sex koordinata qiymatlari va hisobiy yuklamalari yordamida korxonaning elektr yuklamalar markazi aniqlanadi:

$$x_0 = \frac{\sum_{i=1}^n P_i x_i}{\sum_{i=1}^n P_i}; \quad y_0 = \frac{\sum_{i=1}^n P_i y_i}{\sum_{i=1}^n P_i};$$

bu yerda: P_i ; X_i ; Y_i - i-chi sexning hisobiy aktiv quvvati va uning geometrik markazining koordinatlari [5-8]. X_o va Y_o koordinata qiymatlar orqali korxonaning shartli elektr yuklamalr markazi aniqlanib, bosh planda ko'rsatib o'tiladi.

BPP o'rnatiladigan elektr yuklamalar markazi har doim ham hisob orqali aniqlangan nuqtada belgilanmaydi. Uni o'rnatish quyidagi faktorlar asosida amalga oshiriladi:

BPPga yuqori kuchlanish tomondan keladigan havo liniyasini ishchilar harakati taqilangan yoki kam qatnov hududlardan olib o'tish zarur [5];

BPPni imkon qadar katta quvvatli iste'molchilarga yaqinroq qilib joylashtirish kerak.

Hisob yordamida aniqlangan yuklamalar markazi yuqoridagi ikkita talabga javob bersagina, bu markaz korxonaning haqiqiy yuklama markazi hisoblanadi.

Elektr yuklamalar kartogrammasi bu – korxona bosh planida yuklamalarning qanday taqsimlanganligini tasavvur qilish maqsadida sex quvvatiga bog'liq ravishda aniqlangan radius asosida chizilgan doiradir. Doira sex yuklamalarining katta kichikligini ifodalandi [6,7].

Nazariy qismda berilgan ifodalar yordamida berilgan jadvaldagi iste'molchilar zavod hududida joylashgan mavjud sexlar, ularning kordinata qiymatlari va hisobiy yuklamalari yordamida korxonaning elektr yuklamalar markazi aniqlanadi [8]:

No	Zavoddagi sexlar	X	Y	P_h, kVt
1	1chi sex	19,5	7	400
2	2chi sex	19,5	10,3	650
3	3chi sex	5	10,7	1500
4	4chi sex	9,5	17,9	250

$$x_0 = \frac{\sum_{i=1}^n P_i x_i}{\sum_{i=1}^n P_i} = \frac{400 * 19,5 + 650 * 19,5 + 1500 * 5 + 250 * 9,5}{400 + 650 + 1500 + 250} = 10,84$$

$$y_0 = \frac{\sum_{i=1}^n P_i y_i}{\sum_{i=1}^n P_i} = \frac{400 * 7 + 650 * 10,3 + 1500 * 10,7 + 250 * 17,9}{400 + 650 + 1500 + 250} = 10,72$$

Nazariy qismda berilgan ifodalar yordamida 1chi sex uchun elektr yuklamalar kartogrammasi aniqlaymiz [9]: $P_{\Sigma h}=400 \text{ kVt}$, $P_{h,yo}=30 \text{ kVt}$.

$$r_1 = \sqrt{\frac{\sum P_x}{\pi * m}} = \sqrt{\frac{400}{3,14 * 3}} = \sqrt{\frac{400}{9,42}} = 6,52 \text{ m}$$

$m=3$ deb qabul qilamiz.

$$\alpha = \frac{P_{h,yo} \cdot 360^0}{P_{h\Sigma}} = \frac{30}{400} * 360 = 27^0$$

2chi sex uchun elektr yuklamalar kartogrammasi aniqlaymiz: $P_{\Sigma h}=650 \text{ kVt}$, $P_{h,yo}=50 \text{ kVt}$.

$$r_1 = \sqrt{\frac{\sum P_x}{\pi * m}} = \sqrt{\frac{650}{3,14 * 3}} = \sqrt{\frac{650}{9,42}} = 8,3 \text{ m}$$

m=3 deb qabul qilamiz [10].

$$\alpha = \frac{P_{h,yo} \cdot 360^0}{P_{h\Sigma}} = \frac{50}{650} * 360 = 28^0$$

3chi sex uchun elektr yuklamalar kartogrammasi aniqlaymiz [7,8]:

$P_{\Sigma h}=1500 \text{ kVt}$, $P_{h,yo}=80 \text{ kVt}$.

$$r_1 = \sqrt{\frac{\sum P_x}{\pi * m}} = \sqrt{\frac{1500}{3,14 * 3}} = \sqrt{\frac{1500}{9,42}} = 12,6 \text{ m}$$

m=3 deb qabul qilamiz [11].

$$\alpha = \frac{P_{h,yo} \cdot 360^0}{P_{h\Sigma}} = \frac{80}{1500} * 360 = 19^0$$

4chi sex uchun elektr yuklamalar kartogrammasi aniqlaymiz: $P_{\Sigma h}=250 \text{ kVt}$, $P_{h,yo}=35 \text{ kVt}$.

$$r_1 = \sqrt{\frac{\sum P_x}{\pi * m}} = \sqrt{\frac{250}{3,14 * 3}} = \sqrt{\frac{250}{9,42}} = 5,2 \text{ m}$$

m=3 deb qabul qilamiz [12].

$$\alpha = \frac{P_{h,yo} \cdot 360^0}{P_{h\Sigma}} = \frac{35}{250} * 360 = 28^0$$

Taxlil va natijalar asosida shuni aytish joizki, zavodning x o'qda $x_0=10,84$ y o'qda $y_0=10,72$ kelib chiqdi. Bu natija korxonaning BPP ning o'rnatilish o'rnnini belgilaydi. Yuklamalar kartogrammasi 1-sex uchun $\alpha=27^0$, 2-sex uchun $\alpha=28^0$, 3-sex uchun $\alpha=19^0$, 4-sex uchun $\alpha=28^0$ hosil bo'ldi.

Sanoat korxonalari elektr ta'minotida elektr yuklamalari kartogrammasini qurish va BPP ning o'rnatilish joyini to'g'ri joylashtirish bo'lajak muhandis-elektriklardan yuksak bilim, ko'nikma, malaka talab qiladi. Buni amalga oshirish maqsadida bugungi kunda bo'lajak muhandis-elektriklar ishlab chiqarishdan ajralmagan holatda o'zlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishlari zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Abror Q. Research and Analysis of Ferromagnetic Circuits of a Special Purpose Transformer //Fazliddin, A., Tuymurod, S., & Nosirovich, OO (2020). Use of Recovery Boilers At Gas-Turbine Installations Of Compressor Stations And Thyristor Controls. The American Journal of Applied sciences. – 2020. – T. 2. – №. 09. – C. 46-50.
2. Qurbonov A., Qurbonov A. Кўп функцияли токни кучланишга ўзгарткичларнинг ишончлилик кўрсаткичлари ва иш қобилияти эҳтимоллигини тадқиқ этиш //Физико-технологического образования. – 2021. – №. 2.
3. Qurbonov A., Nazarov F., Qurbonova B. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ТОКА В НАПРЯЖЕНИЕ //Физико-технологического образования. – 2021. – Т. 6. – №. 6.
4. Qurbonov A., Qurbonov A., Qurbonova B. OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TALABALARING INTELLEKTUAL KOMPETENTSİYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JİHATLARI //Физико-технологического образования. – 2022. – №. 2.

5. Qurbanov A., Qurbanov A., Qurbanova B. MUHANDIS-ELEKTRIKLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDAGI BUGUNGI KUN TALABALAR //Физико-технологического образования. – 2022. – №. 2.
6. Qurbanov A. et al. “ZARBDOR TEXTILE” MCHJNING SAMARADORLIK KO’RSATKICHINI OSHIRISH MAQSADIDA O’RNATILADIGAN TRANSFORMATORLARNING SONI VA QUVVATINI HISOBBLASH //Физико-технологического образования. – 2022. – №. 2.
7. Курбанов А. Intellektual kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1/S. – С. 268-277.
8. Abdinasir o‘g‘li Q. A. BO ‘LAJAK MUHANDIS-ELEKTRIKLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING METODIK ASOSLARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
9. Abdinasir o‘g‘li Q. A. TALABALARDA INTELLEKTUAL KOMPETENTSİYALARİNG RIVOJLANTIRISHNING TARKIBİY QİSMLARI //E Conference Zone. – 2022. – С. 27-30.
10. Qurbanov A., Qurbanova B., Abdurashidova D. Inson tanasidagi radioaktivlik //Физико-технологического образования. – 2021. – №. 5.
11. Qurbanov A., Qurbanova B. INSON VA UNING HAYOTIDA RADIATSİYANING TUTGAN O’RNI //Физико-технологического образования. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
12. Qurbanov A., Qurbanova B. TABIIY RADIATSİYA MANBALARI //Физико-технологического образования. – 2022. – №. 2.